fatdoshlik va kuchaytiruv mazmunlari ravishdoshning yangi shakliga “joy ajratib” bergan. Bu holat nomutanosiblikni yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, murakkab – sintetik shaklning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida sodda va qo‘shma birliklarning farqi ularning tuzilishida bo‘lib, ma’no jihatidan esa ular hamma vaqt ham farqli belgilarga ega emas. Shuning uchun sintetik shakllarni ma’noli qismlarga bo‘lish mumkin bo‘lsa-da, paradigma nuqtayi nazardan yaxlit shakl ko‘rinishda olib qarash, yaxlit shakl sifatida tahlil qilish lozim. Mazmun talabi bilan murakkablashgan shakllar tilda o‘ziga xos nomutanosibliklarni yuzaga chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология, М., 1986, с. 25–31.

(2). Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2011, 141-bet.

(3). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилидаги бир синтактик қурилма ҳақида. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1992, 2-son, 16-бет.

(4). Кононов А.Н. О природе тюркской агглютинации. “Вопросы языкознания”, 1976, № 4, с. 13.

(5). Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1979, 42–48-бетлар.

Ruzmetova Ozoda Alimovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); ozoda2019581@gmail.com)

MATEMATIK TERMINLARNING IZOHLI LUG‘ATLARDAGI TADQIQI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada lug‘atlar haqida muhokama borib, xususan, terminologik lug‘atlar va izohli lug‘atlar haqidagi masalalar ko‘rib o‘tilgan. Mazkur maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “Macmillan English dictionary” lug‘atlarida matematik terminlarni izohlanish masalalari tahlilga tortilgan. Tahlil natijasida umumadabiy va terminologik izohli lug‘atlarda terminlarning izohlanishi bir-biridan farq qilishi ma’lumligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *termin, terminologiya, terminologik lug‘at, izohli lug‘at, izohlash, matematik terminlar.*

ИЗУЧЕНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются словари, в частности, вопросы терминологических словарей и толковых словарей. В данной статье анализируются вопросы толкования математических терминов в словарях «Толковый словарь узбекского языка» и «Macmillan English dictionary». В результате анализа отмечается, что толкование терминов в общелитературных и терминологических толковых словарях отличается друг от друга.*

Ключевые слова: *термин, терминология, терминологический словарь, толковый словарь, объяснение, математические термины.*

STUDY OF MATHEMATICAL TERMS IN EXPLANATORY DICTIONARIES

Annotation. *In this article, it is discussed dictionaries, in particular, issues of terminological dictionaries and explanatory dictionaries. This article analyzes the issues of explanation of mathematical terms in the dictionaries “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language” and “Macmillan English Dictionary”. As a result of the analysis, it is noted that the explanation of terms in general literary and terminological explanatory dictionaries differs from each other.*

Key words: *term, terminology, terminological dictionary, explanatory dictionary, explanation, mathematical terms.*

Kirish. Til taraqqiyotida tilning lug‘at tarkibi turli o‘zgarishlarga duch keladi. Bu o‘zgarishlar miqdor jihatdan yoki sifat jihatdan o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin, ya’ni, yangi leksik birliklar paydo bo‘ladi va boshqalari iste’moldan chiqadi, ba’zi so‘zlar yangicha ma’nolarda qo‘llanila boshlaydi, ba’zi bir boshqa so‘zlarning ayrim ma’nolari o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Izohli lug‘atlar muayyan tilning til boyligini ko‘rsatish, tilning muayyan davridagi holatini aniqlash kabi maqsadlarni ko‘zlagan holda tuziladi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati ham keng xronologik doirada o‘zbek tilining butun so‘z boyligini emas, balki hozirgi zamon o‘zbek tilining keng iste’moldagi so‘z boyligini to‘plash va tavsiflashni, shuningdek, uning me’yorlarini belgilash va barqarorlashtirishni o‘ziga maqsad qilib qo‘ygan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da “Izohli lug‘at”-ga “Lug‘aviy birlikning ma’nosi keng izohlanadigan, grammatik, uslubiy va boshqa belgilari ham qayd eti-

ladigan lug‘at”,[1] deb ta’rif berilgan. O‘z ta’rifidan kelib chiqqan holda, izohli lug‘atlar mukammallikni talab qiladi. Izohli lug‘atlarda so‘zlarning izohlari berilibgina qolmasdan, unda leksikaning me’yorlari belgilangan va barqarorlashgan bo‘ladi, ya’ni so‘zlarning imlosi, talaffuzi va ularning ishlatilish o‘rinlari keltiriladi. Shuningdek, kerakli o‘rinlarda so‘zlarning kelib chiqishi – etimologiyasi ham ko‘rsatib o‘tiladi.

Terminologik lug‘atda muayyan bir soha terminologiyasini imkon boricha qamrab olish va shu sohada shakllangan ilmiy tushunchalar tizimini mantiqan izchil tavsiflash maqsadga muvofiq bo‘lsa, izohli lug‘atning vazifasi umumxalq tilining leksik-semantik tizimini muayyan til jamoasida qanday mavjud bo‘lsa, shundayligicha tavsiflashdan iborat.[2] Izohli lug‘atlarda tilning keng iste’moldagi so‘zlari to‘plangan va izohlangan bo‘ladi. So‘zlarning izohi bilan bir qatorda, lug‘at ularning ma’nolarini ochib beruvchi misollar, iqtiboslar bilan dalillangan bo‘ladi.

O‘zbek tilining har ikkala izohli lug‘atiga termin tanlashda, ularning chegara va miqdorini belgilashda maxsus qo‘llanma va yo‘riqnomalarga imkon boricha rioya qilingan, boshqa tillardagi izohli lug‘at tuzish tajribalaridan unumli foydalanilgan. Masalan, o‘zbek tilining besh jildli izohli lug‘atiga 60ga yaqin fan, texnika, san’at va madaniyat sohalari, ularning tarmoqlaridan 17–18 mingdan ortiqroq termin (bunda sof termin ham, umumadabiy tilda qo‘llaniluvchi ko‘p ma’noli so‘zlarning terminologik ma’nolari ham hisobga olingan) tanlab olingan va tegishli darajada izohlangan, zarur hollarda daliliy misollar (illustratsiyalar) bilan ta’minlangan.[3] Shu fanlar qatoriga, albatta, matematika fani ham kiritilgan. “O‘zbek tilinig izohli lug‘ati”ning har ikkala nashrida ham matematik terminlar o‘ziga xos izohlangan.

A.Madvaliyevning “O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari”[4] asarida 60 ga yaqin fan sohasi va tarmoqlaridan eng asosiy deb hisoblangan 21 soha bo‘yicha tanlanma yo‘l bilan izohli lug‘atlarga kiritilgan terminlar va terminologik ma’nolar miqdori xususida ma’lumot bergan va bu sohalar orasida matematika sohasi ham o‘rin olgan bo‘lib, ular quyidagicha ko‘rsatilgan:

3.1-jadval

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga kiritilgan matematik terminlar miqdori

Terminologik tizim	O‘TIL-2 da berilgan terminlar miqdori	O‘TIL-2 da yangi kiritilgan terminlar miqdori	O‘TIL-2 da berilgan, lekin O‘TIL-5 ga kirmagan terminlar miqdori	O‘TIL-5 dagi terminlarning umumiy miqdori
Matematika	198	55	3	250

Tadqiqoti obyekti sifatida tanlangan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (keyingi o‘rinlarda O‘TIL) va “Macmillan English dictionary” (keyingi o‘rinlarda MED) lug‘atlarida matematik terminlarni tahlilga tortdik.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada matematikaga oid terminlar, asosan, ularning izohlari har ikkala qiyoslanayotgan tillarda o‘xshashligi, ba’zan qisman o‘xshashligi yoki izohi har ikkala tilda farqlanishiga ko‘ra tahlilga tortilgan. Tanlangan matematik terminlarning izohlarini taqqoslab o‘rganildi va ularning farqli hamda umumiy tomonlarini aniqlandi. Tadqiqotni yoritishda tavsifiy, qiyosiy-tipologik (chog‘ishtirma), tarixiy-etimologik, komponent va semik tahlil, statistik tahlil kabi metod va usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Har qanday tilda izohli lug‘atlarda terminlarni izohlash ma’lum tartibga amal qilgan holda amalga oshiriladi. O‘TILda ham terminlar izohi muayyan tartibga asoslanadi. Agar terminlar umumadabiy so‘zdan shakllangan bo‘lsa, bunday terminlarning umumadabiy tilga xos ma’nosi, avval, terminologik ma’nosi keyingi o‘rinda izohlanadi. Bu tartibni matematikaning asosiy terminlaridan hisoblangan, arifmetikaga tegishli bo‘lgan *qo‘shuv – addition* terminining izohi misolida ko‘rishimiz mumkin:

O‘zbek tilining izohli lug‘ati	Macmillan English dictionary
QO‘SHUV 1. Qo‘shmoq *(fl. har.n)*	***addition*** *[ə'dif(ə)n] noun*

[1] Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T., O‘zRFA, “Fan”, 2013, 52-bet.

[2] Малаховский Л.В. Специальные термины в общем словаре: принципы отбора и толкования (на материале английской лексикографии). Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Л., 1976, с. 226.

[3] Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2017, 191-бет.

[4] Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2017, 190-бет.

2. ***mat.*** Qo‘shish amali	*1 something that you add to something else* *2* ***MATHS*** *the process of adding two or more numbers or amounts together to make a total* *3 an extension that is added to a building*

Har ikkala lug‘atda ham, avvalo, umumadabiy tildagi ma’nosi jihatdan va keyingi o‘rinda matematika terminologik sohasiga tegishliligini bildirib turgan maxsus terminologik belgi qo‘yilib izohlangan.

O‘TILda so‘zning grammatik xususiyatiga to‘xtalib maxsus belgi ostida, ya’ni *fl. har.n* kabi ko‘rsatilib, u fe’lning harakat nomi shakli ekanligi qayd etiladi. MEDda mazkur birlik ot so‘z turkumiga tegishli ekanligi maxsus belgi (*noun*) orqali ifodalangan.

Yuqorida keltirilgan termin izohidan yana shuni aniqlash mumkinki, ularning izohi o‘zbek va ingliz tillarida hajm jihatdan va mazmun jihatdan farqlanadi. O‘TILda termin *amal*ni ifodalashi ta’kidlangan va so‘z ikkita o‘rinda ishlatilishini unga lug‘atda ikkita izoh berilishidan bilib olishimiz mumkin. MEDda bu termin *jarayon* sifatida qaralgan va to‘liq izoh berilgan; ya’ni, *jami yig‘indini hosil qilish uchun ikki yoki undan ortiq sonlar yoki miqdorlarni birga qo‘shish jarayoni* kabi izohlangan va keltirilgan izohga qarab mazkur so‘z uchta o‘rinda foydalanilishini aytishimiz mumkin.

Matematikaga oid bir qator terminlar ham boshqa fan va soha terminlari kabi xuddi umumiste’mol so‘zlarida uchraganidek ko‘p ma’nolilik, ya’ni polisemantik ma’no xususiyatlariga ega. Lug‘at har bir so‘z uchun tuzilgan lug‘at maqolalaridan tashkil topgan bo‘ladi. Terminlarning ko‘p ma’nolilik xususiyatlarini izohli lug‘atlarning lug‘at maqolalarida har bir ma’nosi alohida shartli belgilar bilan ifodalanganligidan bilib olishimiz mumkin.

O‘zaro antonim bo‘lgan terminlar ma’nosini bir-biriga qiyoslab ko‘rish ham har bir termin ifodalaydigan til hodisasining mohiyatini to‘g‘ri va aniq tushunishga yordam beradi. Shu sababli o‘zaro antonim bo‘lgan terminlarning har biri uchun tuzilgan lug‘at maqolasida *(zid)* belgisi bilan uning antonimi keltiriladi.[1] Ushbu berilgan fikrga asosan O‘TILda *manfiy* termini misolida uning antonimi sifatida *musbat* terminining keltirilishini uchratmadik, ammo ingliz tilida MED da *negative – manfiy* so‘zi har bir izohi oxirida maxsus zidlov belgisi (≠) bilan uning antonimi *positive – musbat* so‘zi keltirilganini uchratdik.

Matematikaga oid terminlarning har ikkala qiyoslanayotgan tillarda so‘z birikmasi holatida ham ko‘p uchratamiz. Bunday tuzilishga ega bo‘lgan terminlarning izohli lug‘atlarda berilishi o‘ziga xos tartibda amalga oshirilgan. Birikmalar, odatda, terminning lug‘at maqolasida yoki terminga keltirilgan misolda keltirilib o‘tilgan bo‘ladi. Izohning bunday keltirilishi birikma terminga tegishli bir komponent bo‘lib kela olishini ifodalaydi.

Illyustrativ misolning qanday shaklda, ya’ni so‘z birikmasi yoki gap shaklida bo‘lishi, shuningdek, uning ma’lum manbadan olinishi kerakligi so‘zning, so‘z ma’nosining xususiyatiga qarab belgilanadi. Masalan, ma’noga berilgan izoh va boshqa qaydlarni shu so‘z ishtirokida tuzilgan so‘z birikmasi tasdiqlay olsa, shunday misolni berish va shu bilan cheklanish mumkin.[2]

Bu holatni o‘zbek va ingliz tillaridagi *algebraik ifoda – algebraic expression* birikma terminining izohli lug‘atlardagi izohida kuzatishimiz mumkin.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati	Macmillan English dictionary
Ifoda [arabcha – anglatish, o‘rgatish; xabardor qilish; ifodalash, bayon qilish; ko‘rsatma] 1. bildiruvchi, aks ettiruvchi nutq birligi: so‘z, ibora, gap va b. 2. aks ettiruvchi yoki mujassamlantiruvchi belgi, holat, ramz. 3. biror matematik bog‘lanishni bildiruvchi formula: **algebraik ifoda.**	**expression** [ik'spreʃ(ə)n] noun 1 a word or phrase 2 a look on smb’s face that shows what their thoughts or feelings are 3 the act of showing what your thoughts or feelings are by your behavior or through art, music etc 4 **MATHS** a group of signs and numbers that show a particular quantity or idea: **algebraic expression**

Har ikkala qiyoslanayotgan lug‘atlarda ham so‘zga keltirilgan misol qismida, birikma termin, ya’ni, *algebraik ifoda – algebraic expression* termini *ifoda – expression* so‘zining lug‘at maqolasi tarkibida kelti-

[1] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2002, 7-бет.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд (А-Д). Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006, 18-бет.

rilgan. O‘zbek tilida so‘zning uchinchi ma’nosida hech qanday maxsus belgisiz so‘zning matematika bilan aloqador ma’nosi izohlangan va misolda *algebraik ifoda* deb ko‘rsatish vositasida so‘zning *algebraik* so‘zi bilan birikkan holatda ishlatilishi ko‘rsatilgan.

Ingliz tili izohli lug‘atida ham *expression* so‘zi xuddi o‘zbek tiliga deyarli o‘xshash tarzda izohlangan, ammo so‘zning aynan matematikaga mansubligi xususiy leksikografik belgi bilan keltirilgan. Bu lug‘atda ham *expression* so‘zi *algebraic* so‘zi bilan birikishi misolda keltirilgan.

Shunday terminologik birliklar borki, bularning aynan matematik terminologik ma’nosi umumadabiy izohli lug‘atlarda berilmagan. Masalan, *nur – ray* terminining terminologik ma’nosi tahlil qilinayotgan har ikkala izohli lug‘atda ham topilmadi. Bu termin maxsus tarjima lug‘atida va ingliz tilida matematik terminlar izohli lug‘atida, “Dictionary of Mathematics terms”[1] maxsus terminologik izohli lug‘atida berilgan. Masalan, *Ray – a ray is like half of a line: it has one end point, and then goes off forever in a straight line/ you can think of a light ray from a star as being a ray, with the endpoint located at the star.*[2]

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da[3] bu termin *nur – (matematikada) yarim to‘g‘ri chiziq* kabi izohlangan. Shu o‘rinda o‘zbek tilida maxsus matematik terminlar izohli lug‘ati shu kungacha yaratilmaganligini aytib o‘tish o‘rinlidir.

Xulosa va takliflar. Umumadabiy va terminologik izohli lug‘atlarda terminlarning izohlanishi bir-biridan farq qiladi, shu sababli har bir sohaning terminologiyasini o‘rganish uchun maxsus terminologik izohli lug‘atlar yaratilishi kerak degan xulosaga kelamiz. Chog‘ishtirilayotgan har ikkala tillarning umumadabiy izohli lug‘atlarida umumiste’mol so‘zlarining izohi asosiy tamoyil bo‘lganligi sabab, terminologik birliklar izohiga katta e’tibor qaratilmagan. Shunga asosan, muayyan sohaning terminlarini uyg‘unlashtirish, unifikatsiyasiga erishish, ikki tilli (inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha) lug‘atini yaratishning leksikografik mezonlari va uslubiy yondashuvlari zaruriyati aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T., O‘zRFA “Fan”, 2013, 52-bet.

(2). Малаховский Л.В. Специальные термины в общем словаре: принципы отбора и толкования (на материале английской лексикографии). Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Л., 1976, с. 226.

(3). Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2017, 190–191-бетлар.

(4). Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2002, 7-бет.

(5). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд (А-Д). Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006, 18-бет.

(6). Douglas Downing, PhD. Dictionary of Mathematics Terms. New York, Barron’s Educational Series, 2009, pp. 282–411.

(7). Ўзбекистон миллий энциклопедияси (А ҳарфи). Т., Давлат илмий нашриёти, 330-бет.

Sapayeva Barno Shanazarovna (PhD, dotsent v.b., Ma’mun universiteti; e-mail: sapayeva_barno@mamunedu.uz; ORCID 01009-0001-6461-252X)

QARDOSH BO‘LMAGAN TILLARDA GAPNI BO‘LAKLARGA AJRATISH VA SO‘Z TARTIBI TADQIQIGA DOIR

Annotatsiya. *Tilshunoslikda gapni tarkibiy qismlarga ajratish masalasi qadimdan e’tiborda bo‘lib kelmoqda. Bu yo‘nalishda yuzlab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, mazkur masala hanuzgacha to‘liq o‘rganilmagan va ayrim jihatlari hanuz sirli bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada gapni bo‘laklarga ajratish va so‘zlarning tartibini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tarixiy tadqiqotlar yoritiladi. Asosiy urg‘u bu boradagi tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari va ularning izlanishlarini tahlil qilishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *gaplarda so‘z tartibi, tema, rema, kommunikativ yondashuv.*

[1] Douglas Downing, PhD. Dictionary of Mathematics Terms. New York, Barron’s Educational Series, 2009, 411 p.
[2] Douglas Downing, PhD. Dictionary of Mathematics Terms. New York, Barron’s Educational Series, 2009, p. 282.
[3] Ўзбекистон миллий энциклопедияси (А ҳарфи). Т., Давлат илмий нашриёти, 330-бет.